

## **INGLIZ TILINI O'RGANISHNING USLUBLARI VA USULLARI**

*Narkenbayeva Asemgul Adilbekovna*

*Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti magistri*

**Annotatsiya:** Ingliz tilini o'rganishning zamonaviy usullari va uslublari turli metodlar va texnologiyalar yordamida yanada samarali natijalarni qo'lga kiritish.

**Kalit so'zlar:** Tillar, ingliz tili, tilni mustaqil o'rganish, ta'lim texnologiyalari, You Tube, online kurslar va ilovalar, interaktiv suhbatlar, audio kitoblar, forumlar va interaktiv o'yinlar.

### **Kirish**

Bugungi kunda ingliz tili dunyoning eng keng tarqalgan va global tiliga aylangan. Ingliz tilining o'rni turli sohalarda juda katta va uni o'rganishning ahamiyati har tomonlama ortib bormoqda. Ingliz tili hozirda xalqaro muloqotning asosiy tili sifatida ishlatilmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ingliz tili biznes, diplomatiya, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda asosan aloqa tili sifatida qo'llaniladi. Bu, albatta, ingliz tilini o'rganishni jahon bo'ylab yanada zarur qilib qo'ymoqda. Misol qilib aytganda, biznes va iqtisodiyotda ingliz tili global savdo, moliya va iqtisodiy aloqalarning asosiy tili bo'lib qolgan. Keng tarqalgan kompaniyalar, masalan, Apple, Microsoft, Google va boshqalar, ingliz tilida ishlaydi, va ko'plab xalqaro shartnomalar ingliz tilida imzolanadi. Diplomatik munosabatlarda ham ingliz tili umumiy aloqa vositasi sifatida ishlatiladi. Ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, NATO, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar ingliz tilini rasmiy til sifatida qabul qilgan. Ingliz tili ilm-fan, texnologiya va ta'lim sohalarida yetakchi o'rin tutadi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, konferensiyalar va texnologik yangiliklar ingliz tilida taqdim etiladi. Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar asosan ingliz tilida chop etilmoqda. Masalan, dunyodagi eng nufuzli ilmiy jurnallar va konferensiyalar, masalan, Nature, Science va boshqalar ingliz tilida olib borilmoqda.

Texnologiya sohasida ham ingliz tili kompyuter dasturlash, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va boshqa sohalarda asosiy tilga aylangan. Ko'plab dasturlash tillari (masalan, Python, Java) va texnik hujjatlar ingliz tilida yozilmoqda. Ko'plab o'quv yurtlari, universitetlar va ta'lim tizimlari ingliz tilida ta'lim berishmoqda. Ingliz tilini bilish ta'limda muvaffaqiyatga erishishda muhim omilga aylangan. Xalqaro ta'limda ham ko'plab xalqaro universitetlar, masalan, Harvard, Oxford, MIT, ingliz tilida ta'lim berilmoqda. Ingliz tilini bilish talabalar uchun dunyo miqyosidagi eng yaxshi o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ingliz tili internetda eng keng tarqalgan til sifatida namoyon bo'lmoqda. Internetdagi eng mashhur saytlarda, bloglarda, ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tili asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar: Instagram, Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tili dunyo bo'ylab ishlatiladigan asosiy tilga aylangan. Hozirgi kunda ko'plab xalqaro brendlari va kompaniyalar o'z reklama va marketing kompaniyalari ingliz tilida olib bormoqdalar. Internet xizmati orqali ishlash ko'plab onlayn ishslash imkoniyatlarini ochib bermoqda. Masalan, frilans, masofaviy ishlar, ingliz tilini bilishni talab qiladi. Boshqa mamlakatlar bilan ishlashda ham ingliz tili muloqotning asosiy vositasi bo'lmoqda. Internetda mavjud ko'plab onlayn kurslar va resurslar ingliz tilida bo'lib, bu o'quvchilarga va mutaxassislarga o'z bilimlarini kengaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Coursera, Udemy, edX kabi platformalar ingliz tilida kurslar taqdim etadi, bu esa o'quvchilarni global bilimlar bazasiga ularashadi.

YouTube va video darslar ingliz tilini o'rganishning samarali usullaridan biridir, chunki ular ko'p jihatlarni, jumladan eshitish, talaffuz, grammatika, va leksikani yaxshilash imkonini

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

beradi. Video darslar ingliz tilini eshitish orqali o'rganishga yordam beradi. Tillarni o'rganishda eshitish juda muhim, chunki har bir tilning o'ziga xos talaffuz, ohang va intonatsiyasi mavjud. YouTube'dagi ingliz tilidagi kanallar orqali siz asli ingliz tilida gapiradiganlarning so'zlashuvini eshitishingiz mumkin, bu esa sizga qanday talaffuz qilishni, so'zlarning qanday bog'lanishini va ularni qanday aytish kerakligini tushunishga yordam beradi. Masalan, *BBC Learning English* kanali orqali ingliz tilidagi yangiliklarni va suhbatlarni tinglash orqali, siz turli mavzularda ishlatiladigan so'zlarni va iboralarни o'rganishingiz mumkin. Buning natijasida talaffuzni yaxshilashga yordam beradi. Ingliz tilini o'rganishda talaffuzni to'g'ri o'rganish juda muhim. Video darslar bu borada juda samarali, chunki ular talaffuzni to'g'ri namoyish qilish imkonini beradi. Ingliz tilidagi vokal va konsonant tovushlarining farqlarini tushunish va talaffuzni yaxshilash uchun video materiallar juda foydali. *English Addict with Mr. Duncan* kabi kanallarda, masalan, inglizcha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va harflar orasidagi bog'lanishlarni tushunish bo'yicha darslar mavjud. Mr. Duncan o'z videolarida, so'zlarning talaffuzini va ularni qanday qilib tabiiyaroq qilishni ko'rsatadi. Grammatika va sintaksisni o'rganish esa, YouTube'dagi ingliz tilidagi kanallar orqali grammatika va sintaksisni o'rganish osonlashadi. Video darslar vizual tarzda aniq misollarni ko'rsatadi, bu esa tushunishni soddalashtiradi. *EngVid* kanali juda mashhur, bu kanal grammatikani, vaqtlarni, so'z birikmalarini, va boshqa til o'rganishga doir masalalarni aniq va oddiy usulda tushuntiradi. Misol uchun, siz Present Perfect va Past Perfect kabi vaqt shakllarini video darslar orqali ko'rsatib o'rgansangiz, ushbu mavzularni yanada oson o'zlashtirishingiz mumkin. Leksika va yangi so'zlarni o'rganish asosida samarali natijalarga erishish mumkin. Video darslar orqali siz yangi so'zlar, iboralar va ularni qanday ishlatishni o'rganishingiz mumkin. O'qish va tinglash orqali yangi leksikani o'zlashtirishda video darslar katta yordam beradi. *BBC Learning English* kabi kanallar sizga turli mavzularda yangi so'zlar va ifodalarni tanishtiradi, bu esa sizning so'z boyligingizni kengaytiradi. Video darslar bir vaqtning o'zida eshitish va ko'rishni birlashtiradi, bu esa o'rganish jarayonini samarali qiladi. Odamlar ko'pincha har xil o'rganish usullariga (vizual, eshitish) javob beradi, va YouTube'dagi video darslar bu ikki usulni birlashtiradi. Masalan, grammatik qoidalar yoki so'z birikmalarini video orqali ko'rsatilgan holatlarda, siz nafaqat ularni o'qib, balki ularni real kontekstda qanday ishlatilganini ko'rishingiz mumkin. Video darslar ko'pincha qiziqarli va interaktiv bo'ladi. O'qituvchilar ko'plab vizual materiallar, animatsiyalar, va interaktiv misollar yordamida o'rganish jarayonini osonlashtiradilar. Masalan, *Mr. Duncan* kanali juda shaxsiy va energiyaga to'la bo'lib, ko'plab kulgili va qiziqarli holatlar bilan o'rgatadi, bu esa o'rganishni yanada yoqimli qiladi. YouTube'dagi ingliz tilidagi video darslar orqali, siz faqat grammatikani yoki talaffuzni emas, balki ingliz tilidagi madaniyat, an'ana, va kundalik hayotdagi mashhur iboralar haqida ham ma'lumot olishingiz mumkin. *BBC Learning English* yoki *English Addict* kabi kanallar ingliz tilidagi madaniyat va tilning o'ziga xos tomonlarini tushuntirib beradigan videolarni ham taklif qiladi, bu esa tilni amaliy tarzda o'rganishda yordam beradi. Ingliz tilini o'rganishda podkastlar va audiokitoblar yordamida tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu, ayniqsa, eshitish va tez-tez uchraydigan so'zlarni o'rganishda foydalidir. Misol uchun, *The English We Speak, 6 Minute English* kabi podkastlar ingliz tilidagi suhbatlarga oid qisqa va foydali darslar taqdim etadi. *Tandem, HelloTalk* kabi ilovalar orqali tilni o'rganayotganlar boshqa o'rganayotganlar yoki tilni ona tili sifatida gapiruvchi odamlar bilan suhbat qurishlari mumkin. *Reddit* va *Quora* kabi platformalarda ingliz tilida suhbatlashish va mavzularni muhokama qilish tilni o'rganishga yordam beradi. Ingliz tilini o'rganishda interaktiv o'yinlardan foydalanish ham foydali bo'lishi mumkin. O'yinlar orqali o'rganish, ayniqsa, o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Instagram va Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilida turli postlar va kontentlarni o'qish va ularga javob berish orqali o'rganishni davom ettirishingiz mumkin.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiyaning asosiy tili sifatida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat xalqaro biznes, diplomatiya va ilm-fan sohalarida, balki madaniyat, ta'lim va turizmda ham asosiy vosita sifatida ishlataladi. Ingliz tilining global tilda aylanishi uning dunyo bo'ylab tarqalishi va ahamiyatini yanada oshirib, xalqaro muloqotning ajralmas qismiga aylanishiga sabab bo'lgan. Uni bilish professional muvaffaqiyat, ta'lim imkoniyatlari, va boshqa mamlakatlar bilan samarali aloqalar uchun zarur bo'lib qolgan. Ingliz tilining o'rni bugungi kunda shunchaki til sifatida emas, balki madaniyatlararo aloqalar, global iqtisodiyot, va texnologik taraqqiyotning muhim vositasi sifatida davom etmoqda. Shu sababli, ingliz tilini o'rganish nafaqat zamon talabiga javob berish, balki dunyo bo'ylab o'z imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur bo'lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hasanboy Rasulov "O'qituvchilar uchun metodik qollanma kitoblari".
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.
3. "The Role of English as a Global Language in International Communication" by Ingrid Piller.
4. Wikipedia.uz
5. <https://www.bbc.co.uk/learningenglish>